



METAFORAGA XOS BA'ZI BIR XUSUSIYATLAR (SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATI MISOLIDA)

¹Kilichev Bayramali Ergashovich

Buxoro davlat universiteti

o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori
filologiya fanlari nomzodi, e-mail: buxara-1@inbox.ru,

²Rustamova Muhayyo Saidovna

Buxoro davlat universiteti

o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi magistranti
m.s.rustamova@buxdu.uz.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7527953>

ARTICLE INFO

Received: 01st January 2023

Accepted: 10th January 2023

Online: 10th January 2023

KEY WORDS

Sirojiddin Saʼuidd, metafora, poetik metafora, obraz, timsol, she'r o'xshatish, so'z, tushuncha, umumiy metafora, xususiy metafora, sodda metafora, so'z birikmasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada metaforning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari va ularning amaliy ahamiyati shoir Sirojiddin Sayyid she'rlari asosida izohlangan. Shoir she'riyatidagi umumiy va xususiy xarakterga ega bo'lgan metaforalar, ularga xos jihatlar tahlil qilingan.

Istalgan nutqni go'zal qiladigan, ruh bag'ishlaydigan birliklaridan biri metaforalardir. Shunga ko'ra metaforalar narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishidir. Metafora ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo'lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda "istiora" deb yuritilgan. Metaforalarning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalardir.

Metafora – inson tafakkuri mevasi. U o'zida ham hissiy, ham mental (aqliy-ruhiy) xususiyatni qamrab oladi. Shuning uchun metaforani inson faoliyatining faqat bir sohasi, ko'pincha, lingvopoetik sath bilan cheklab qo'yish joiz emas. Undan publitsistika, badiiy ijod, falsafa va oddiy nutqda foydalanish mumkin [Toshmatov X. 2002, 12].

Bu hodisa dunyo tilshunosligidan bundan ikki ming yildan ortiq vaqtdan buyon tadqiq etib kelinmoqda.

Gegelning fikricha metaforalar o'z ma'nosida qo'llangan so'z ifodasidan boshqacharoq ifodadir deb yozgan. Aristotel esa o'zining "Poetika" asarida o'xshatish ham metafora ekanini, chunki ularning o'rtasida arzimagan farq borligini aytib o'tadi. Bunga misol tariqasida quyidagi misol keltirilgan. U sherday tashlandi – o'xshatish.

Aristotel metafora haqidagi fikrni davom ettirib quyidagicha ta'rif bergan: "Ko'chma so'z (metafora) narsaga xos bo'lmagan, jinsdan turga, yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga Cpasko'chirilgan yoinki o'xshatilgan so'zdir" [Aristotel, 1980, 45]. Shuningdek, u metaforani "g'alati nomning yo jinsdan turga, yo turdan jinsga, yo turdan turga, yo o'xshashlik asosida ko'chishdir", – deb ta'riflaydi. Bu ta'rifda keltirilgan "g'alati" so'zini shunday izohlaydi:



“Men ko‘p qo‘llanadigan hamma so‘zlardan boshqasini noyob so‘zlar, metafora, cho‘zilgan va boshqa so‘zlarni “g‘alati” deb atayman”.

Ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, metafora “g‘alati” nomlarning bir turidir. Bu nom esa metaforaga nisbatan qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin.

Kognitiv tilshunoslikning taniqli vakili J. Lakoff hamda mashhur faylasuf M. Jonson metaforalarni shunday izohlaydi: “Metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o‘z mohiyatiga ko‘ra metaforikdir” [Usmonova Sh., 2019, 112]. Bu bilan olimlar metaforalar har bir xalqqagina emas, balki barcha xalqlarda obrazli fikrlash uchun muhim ahamiyat kasb etishini qayd etgan.

Jahon tilshunosligida metaforaga berilgan ta‘riflarda xilma-xillikni kuzatish mumkin. Jumladan, A. Potebnya “metafora qisqargan o‘xshatishdir”, ya‘ni o‘xshatishga xos bo‘lgan “kabi”, “xuddi”, “aynan” “o‘xshamoq” singari so‘zlar tushirilsa, metafora yuzaga keladi, deya qayd etsa, A. Vejbitskaya fikricha, “metafora mohiyatan inkorni nazarda tutadi: ko‘zlar – olov, insonlar – vahshiy sherlar, deyilganda, hech kim haqiqatan ko‘zni olov, odamni sher deb o‘ylamaydi, bunday fikrni rad etadi, inkor qiladi. O‘xshatishda esa o‘xshashlik o‘z mavqeyini saqlab qoladi [Вежбицкая. А. Сравнение-градация-метафора // Теория метафоры.- Москва, 1990.-С. 145.]

Demak, metafora va o‘xshatishga nisbatan qarashlar ikki xil: 1) metafora – qisqargan o‘xshatish, ya‘ni ular orasida tashqi shakliy farq bor; 2) metafora va o‘xshatish o‘zaro mazmuniy (ichki) shakily jihatdan farq qiladi.

O‘zbek tilshunosligida esa ko‘chma ma‘nolarni o‘rganish bo‘yicha M. Mirtojiev, I. Shukurov, Z. Tohirov, D. Xo‘jayeva, Sh. Rahmatullayevlar chuqur ilmiy tadqiqotlarni olib borganlar.

Biz ushbu axborotda Sirojiddin Sayyid she‘rlari misolida metaforalarning qo‘llanishi bilan bog‘liq ayrim jihatlarni tahlilga tortamiz.

Berib gulxanligin gulxan, Ochib gulshanligin gulshan,

Yana gul g‘unchalar ta‘zim bilan satrim silab qo‘ysa (“Mening shoirligim orzu” 5-bet).

Ushbu misrada *ta‘zim* so‘zi hamda *silab qo‘ymoq* fe‘li metafora asosida ko‘chirilgan, ya‘ni tabiatning oddiy qonuniyati bo‘lmish gul g‘unchalrining ochilib boshini yerga egishi va shoirning she‘rlariga iltifot bajo keltirilayotganligi tasviri keltirilgan.

Qo‘ling bug‘doyrangdir, yuzing –bug‘doyrang,

Paykallar qo‘ynida bu nechuk jarang –

Kulgingdan uyg‘ondi el, diyorlarim,

Yangrab silkindilar bug‘dorzorlarim (“Bug‘doyzorlarim” 13-bet).

Misra qatida *yangrab silkinmoq* so‘zi metafora asosida ma‘no ko‘chishini yuzaga chiqargan bo‘lib, unda shoir inson xatti-harakatlarini yurtning bepoyon bug‘doyzorlariga ko‘chirish orqali ifodalamoqda.

O, ona yurt, tuproqlaring,

Termiziylar, Kubrolaring –

Mangu uyg‘oq daryolaring

Esar Jayhun shamollari (“Jayhun shamollari” 17-bet).



Ushbu o'rinda *uyg'oq daryolaring* birikmasi orqali insonga xos bo'lgan *uyg'oqlik* holati daryoga nisbatn qo'llanib, undan metafora yaratilgan.

Shuningdek, mazkur she'rda vatan shamolini obrazli ifodalash maqsadida *o'smoq* fe'li asosida metafora yuzaga keltirilgan.

El-yurt o'sar – dillar o'sar,

Ellar esar, gullar o'sar.

Biz ketarmiz – yillar esar,

Esar Jayhun shamollari.

Tinmas umr safosiday,

Qutlug' hayot navosiday,

Mangu Vatan havosiday

Esar Jayhun shamollari ("Jayhun shamollari" 18-bet).

Misradagi *tinmas* so'zi o'z ma'nosidan tashqari ma'noda qo'llanib, bu so'zning harakat bilan bog'liq ma'nosi *umr* so'ziga ko'chirilganligini ko'ramiz.

Shoirning "Hayot ko'zgusi" she'rda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasiga bag'ishlab yozilgan va unda bir qancha betakror ko'chimlardan foydalanadi. Masalan,

Keldi toshqin solib oxir Hurriyat,

Ekkan ko'chatlaring mangu so'lmagay.

Yashnab kamol topsa har bir hur niyat,

Adabiyot o'lmas, san'at o'lmagay.

Ona tilimizning obi hayoti ("Hayot ko'zgusi" 20-bet).

Shoir mustaqillikka erishishimizni toshqin solib kelayotgan yangilikka va buning natijasida har bir ekkan ko'chatlar esa hech qachon so'lmasligiga, adabiyot va san'at esa o'lmasligiga, istiqloq tufayli gullab yashnashiga ishora qiladi.

Muhtasham so'zlardan tiklab binolar,

She'rlardan yo'l bilan ko'priklar kerak.

Sen ham Istiqlolning uyg'oq zuryodi,

"O'zbekiston adabiyoti...." ("Hayot ko'zgusi" 21-bet).

Sirojiddin Sayyid metaforaning an'anaviy turlaridan ham foydalangan. Masalan:

Yomonlik – yomonda,

Mehr – do'stdadir.

"Postda" gazetasi doim postdadir.

Adolatning qo'li baland kelsa gar,

Razolat doimo tuban, pastdadir ("Ulug'roq ish bormi elning tinchidan" 22-bet)

Poetik nutqda bunday odatiy metaforalar har doim uchraydi. Xususan, adolatning qo'li – inson tana a'zolari asosida ma'no ko'chish yuzaga kelgan. Quyida yana shunday qiyoslashni kuzatamiz.

Razolatning qo'lini dollarto'ra halollar,

Nokaslarda rang bo'lmas qanchalar bo'yamangiz ("Iltimos suyanmangiz" 25-bet).

Hansiramoq fe'li inson holatini aks ettirsa, shoir she'rda dunyoga nisbatan ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin.

Sizmas, unga og'riqdir

Iltimos, suyanmangiz,



Dunyongiz **hansiragan** ("Itimos suyanmangiz" 23-bet).

Metaforalar inson ruhiy holatini poetik tadqiq etish va nutqiy ifodalilikning eng samarali usuli hisoblanadi. Sirojiddin Sayyid ijodidagi bir soʻzdan iborat metaforalarni kuzatdik. Quyida esa shoir ijodida birikma holida kelishini koʻramiz.

Insonlari past ketsa

Muttaham bu dunyoning

Boborahim Mashrabning

Bir satriga suyaning.

Dunyoni bozorga qiyoslanganini bilamiz. Shoir sheʼrlarida esa hissiy taʼsir kuchini orttirih maqsadida dunyoga nisbatan muttaham soʻzi qoʻllangan.

Buncha uzun oh tortingiz, oh Bobur,

Muttahamlar dunyosida shoh Bobur.

Qismat qattiq, alam bisyor, el gʻofil

Bu dunyoda bormi bir dilxoh Bobur ("Shoh Bobur" 28-bet).

Narsalarning xususiyati qismat soʻziga koʻchirilgan. Bu orqali qismatning Bobur boshiga solgan alamlarini ifodalash maqsadida qoʻllangan.

Tortgan zahmatingiz yukdir dillarda,

Koʻrgan umringizdan hech tonmadingiz.

Yoshligingiz kechdi olov yillarda,

Tanklar yonib ketdi,

Siz yonmadingiz ("Faxriylar" 30-bet).

Shoirning "Faxriylar" sheʼrida esa ota-bobolarimiz boshidan oʻtkazgan jahon urushi dahshatini tasvirlashda olov yillar metaforasini qoʻllaydi. Bu orqali shoir oʻquvchida yanda aniq tasavvur uygʻotadi.

Men bir bola edim,

Bu taqdir meni

Ming bir boʻlaklarga boʻlib tashladi.

Umrin talosh boʻldi hasratlarimga,

Dardlarga yem boʻldi koʻnglim dashtlari ("Maqsud Shayxzoda. Yozilmagan xotirala" 49-bet).

Maqsud Shayxzoda xotirasiga bagʻishlangan sheʼrida, shoir bolaligidan taqdir uni ming boʻlaklarga boʻlib tashlaganini, umri esa hasratlariga talosh boʻlganini eʼtirof etadi. Koʻnglining dashtlari esa dardlarga yem boʻlganini taʼkidlaydi. Bunday metaforalar shoir bolaligi haqida umumiy tasavvur uygʻotishga yordam beradi.

"Togʻday odam edi.." deya eslaysiz,

Ayting oʻshal togʻning yigʻlaganini ("Maqsud Shayxzoda. Yozilmagan xotirala" 50-bet).

Bu misrada oʻxshatish va metaforaning birga kelganini kuzatish mumkin. *Togʻday odam* edi jumlasini orqali shoirni togʻga oʻxshatgan boʻlsa, *togʻning yigʻlagani* insonning ichki kechinmalari, holati narsalarga koʻchirilib, metafora hosil qilingan.

Adib oʻzining "Bir idish" sheʼrida narsa predmet nomini insonga koʻchirilish orqali metafora yaratgan:

Har kimsaning inshosida

Kelish bordir ham ketish.



Idish – tovoq dunyosida

Odanzod ham bir idish (“Bir idish” 56-bet).

Kishi ismlari – antroponimlar she’riyatda tez-tez ko’zga tashlanadigan birliklardan sanaladi. Lekin ularning metafora uchun xizmat qilishi kam kuzatiladi [Kilichev B.]. S.Sayyidning “Maqol tahlili” she’rida esa metaforaning kishi ismlariga ko’chirilganini kuzatamiz:

Kimki kimdan o’zar boydir

Kim bunda yotib oldi

Bitta akang – Bozorboydir,

Bir ukang – Sotiboldi (“Maqol tahlili” 55-bet).

Kishi ismlarini metafora tarzida qo’llash kamdan-kam uchraydigan holatdir.

Qishloq, tuman, shahar nomlari toponimlar deb yuritiladi [Kilichev B.]. S.Sayyid she’riyatida toponim metaforaga asos bo’lgan misralar uchraydi. Jumladan, “Tiriktepa” she’rida Surxandaryodagi qadimgi Dalvarzintepa, Xolchayon kabi joy nomlari keltirilgan.

Tarix tegirmoni to’xtamas biroq,

Boboning egni chang, ust-boshi tuproq.

O’zi ham yer qarini yiqib kelganday,

Dalvarzitepadan chiqib kelganday.

Qadim ajdodlarning jismiday go’yo,

Hozir Xoljayondan chiqmish bu bobo (“Tiriktepa” 33-bet).

Shoirning “Vatan” she’rida esa Qoraqalpog’istonning Ellikqal’a, Tuproqqal’a kabi joy nomlarini orqali ma’no ko’chirilgan:

Yerda ham til bordir,

Tunlar qovushib,

Dilga aylanadir yaxlit jon va tan.

Ellikqal’alardan kelsa tovushing,

Tovushlaring kelsa Tuproqqal’adan (“Vatan” 58-bet).

Xulosa o’rnida aytish lozimki, O’zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid she’rlarida she’riyat uchun asosiy qurollardan biri sanalgan metaforalarning turli shakllarini uchratish mumkin. Ularda narsa va predmetlar, o’rin-joy kabilar ma’no ko’chirishining bir turi hisoblangan metaforalar uchun asos vazifasini o’tagan.

References:

1. Тошматов Х.Қ. Ўзбек халқ дostonларида поэтик кўчимлар: номз. диссер. автореф. –Т.: 2002. –Б.12.
2. Аристотел. Поетика. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 45.
3. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. –Toshkent, 2019. – B.112.
4. Сирожиддин С. Сўз йўли. Икки жилдик танланган асарлар. 2-жилд. –Т.: «Шарқ» НМАКБТ. 2008-йил. – 383 б .
5. Qilichev Bayramali Ergashovich , Rahmatullaev Sharofiddin Ne'matullaevich Uzbek national folk tales and the nature of anthroponyms in live communication. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 12 May 2021.



6. Kilichev B.E. Zaripov B.P., Kilichev B.E., Kholmukhamedov B.F. Lingvoculturological characteristics of anthroponyms used in artistic works. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 2, Issue 5 May, 2021.
7. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 2021 02 94.
8. Kilichev B.E., Safarova M.Z. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
9. Kilichev B.E., Safarova O. Study of toponyms in the language of the work. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol.10/ Issue 1, Jan. (2022) 92-95.
10. Kilichev B.E., Bafoyeva N. A. Some characteristics of onomastic units in Abdullah Qodiriy's novel "Bygone days" Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 01, January 2022
11. Kilichev Bayramali, Khojaoglu Timur, Adizova Nodira Classification of Oykons (On the Example of Bukhara Region) International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, 2022, Volume 16 <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm>
12. Вежбицкая. А. Сравнение-градация-метафора // Теория метафоры.- Москва,1990.-С. 145.]